

## TIJORAT BANKLARINING KREDITLARI SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI

PhD, dots. **Melikov Otabek**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0006-1518-4107

[o.melikov@dtpi.uz](mailto:o.melikov@dtpi.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bank tizimida muammoli kreditlar (NPL), ularning xususiyatlari, hisob va statistikasining yuritilishi, ular bo'yicha zaxiralarning to'g'ri hisoblanishi, Germaniya Deutsche bankida kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralar holati va bank kredit portfelini sog'lomlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** NPL, muammoli kreditlari, kredit riski, kredit portfeli, kredit siyosati.

## СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА КРЕДИТОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

PhD, доц. **Меликов Отабек**

Денауский институт предпринимательства и педагогики

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемные кредиты (ПКР) в банковской системе, их характеристики, учет и статистика, корректный расчет резервов по ним, состояние резервов, созданных на случай возможных убытков по кредитам в немецком Deutsche Bank, а также предложения и рекомендации по улучшению кредитного портфеля банка.

**Ключевые слова:** ПКР, проблемные кредиты, кредитный риск, кредитный портфель, кредитная политика.

## WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF COMMERCIAL BANKS' LOANS

PhD, assoc. prof. **Melikov Otabek**

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Abstract.** This article discusses the problem loans (NPL) in the banking system, their characteristics, accounting and statistics, the correct calculation of reserves for them, the state of reserves created against possible losses on loans in Germany Deutsche Bank, and proposals and recommendations for improving the bank's loan portfolio.

**Keywords:** NPL, problem loans, credit risk, loan portfolio, loan policy.

### Kirish.

Mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, Yalpi ichki maxsulotning o'sishi bilan bir qatorda banklarning kredit portfelini muntazam oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa bank kreditlariga bo'lgan talabning ortib borishi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda bank kredit portfelini sifatini barqarorligini saqlab qolish tijorat banklarining banklarning oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tijorat banklarining kredit portfelining barqarorligi qoniqarsiz, shubhali va umidsiz deb tasniflangan, ya'ni mumoli kreditlar NPL ni belgilangan me'yor darajasidan oshib ketmasligini ta'minlash lozim.

### Adabiyotlar sharhi.

Kuznitsovning (2008) fikricha: muammoli kredit – bu qarzdor va o'z majburiyatlarini bank bilan qabul qilgan bitimlar va kelishuvlarga muvofiq to'liq bajara olmaydigan kreditlardir, shuning uchun qarzorning majburiyatlari bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar bank uchun qisman yoki to'liq yo'qotish xavfi demakdir.

Kalandarov (2021) NPL ga shunday ta'rif beradi: NPL (Nonperforming loans) – ingliz tilidan olingan bo'lib, kredit shartnomasi shartlari bajarilmagan bank kredit portfelidagi "harakatsiz kreditlar", ya'ni – muammoli aktivlar (sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar) ma'nosini anglatadi. NPL – kredit asosiy qarzi yoki unga hisoblangan foizlar to'lovlari bo'yicha 90 va undan ortiq kunga kechikkan kreditlarning qoldig'i hamda muddatida to'lanmagan qismi yig'indisining kredit portfeli summasiga nisbatidan iborat.

Mamadiyarov va Tillaevlarning (2015) fikricha muammoli kredit deganda, "substandart", "shubhali" va "umidsiz" kreditlar sifatida tasniflangan kreditlar tushuniladi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, muammoli kreditlar kredit risklarining amaldagi yaqqol namoyon bo'lishining natijasidir, chunki bu bank tomonidan kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslik oqibati bo'lib hisoblanadi. "Muammoli kredit" tushunchasi "kredit risklari" kategoriyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Muammoli kredit (NPL) — bu kredit bo'lib, unda qarzdor belgilangan muddat ichida, odatda 90 kun yoki undan ko'proq vaqt davomida kerakli to'lovlarni amalga oshira olmaydi. NPLlar banklar va moliyaviy tashkilotlar uchun jiddiy muammo bo'lib, ular katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi va moliya tizimining umumiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muammoli kreditlarning xususiyatlari:

To'lovlarni o'tkazmaslik: NPL, qarzdor belgilangan muddat davomida to'lovlarni o'tkazsa, aniqlanadi. Odatda bu muddat 90 kun deb belgilanadi, ammo aniq vaqt moliyaviy muassasalarga qarab farq qilishi mumkin.

Yo'qotish xavfi: NPLlar, odatda, kreditning qaytarilmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan kreditlar bo'lib, bu banklarning yomon qarzlar uchun zaxiralarini oshirishiga olib kelishi mumkin.

Aktivlar sifatining ko'rsatkichi: Bankning kredit portfelidagi NPLlar darajasi aktivlar sifatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Yuqori NPL koeffitsiyentlari yomon kredit amaliyotlari yoki iqtisodiy inqirozlarni ko'rsatishi mumkin<sup>1</sup>.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimiz tijorat banklaridagi kreditlarning saalmog'ining oshishi va muammoli kreditlarning darajasi tahlil qilish maqsadida Uzmilliybank AJ tanlab olindi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki Uzmilliybank AJ ning brutto kreditlari va Muammoli kreditlar (NPL) salmog'i o'sish tendensiyasida bo'lgan. Shunday bo'lsada Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2022-2024 yillarda deyarli 3% hisobida saqlangan.

<sup>1</sup> <https://orginfo.uz/article/1114-muammoli-kredit-npl/>

Uzmilliybank AJ jami kreditlari salmog'i 2 barobarga yaqin oshgan. Bu holat ijobiy baholansada kreditlarning defolt riski ortib ketmasligi uchun rivojlangan xorij mamlakatlari tajribalaridan samarali foydalanishni talab etadi.


1-jadval

**Uzmilliybank AJ ning Muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot, mlrd. so'm**

| Yillar | Kreditlar | Muammoli kreditlar (NPL) | Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi |
|--------|-----------|--------------------------|--------------------------------------------------|
| 2024   | 108 014   | 3 275                    | 3,00%                                            |
| 2023   | 99 423    | 3 098                    | 3,10%                                            |
| 2022   | 89 410    | 2 638                    | 3,00%                                            |
| 2021   | 74 033    | 3 305                    | 4,50%                                            |
| 2020   | 65 598    | 1 862                    | 2,80%                                            |

**Manba:** jadval Markaziy bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


1-rasm ma'lumotlari aniq ko'rsatadiki, Deutsche bank da kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2020 yillarda, 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq tahlil davrida kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan oshib ketmagan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalari samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.



**1-rasm. Deutsche bank da kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %**

**Manba:** rasm muallif tomonidan Deutsche Bank va BNP Paribas bank ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki O'zmilliybankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2021 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa, bankning kredit operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.



**2-rasm. O'zmilliybank AJ da kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %**

**Manba:** rasm muallif tomonidan O'zmilliy bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridagi muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi ga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak 2-rasmdagi kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi O'zmilliybank AJ da nomutanosib shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'z navbatida, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining yuqori bo'lishi tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashganligini, ya'ni, tasniflangan kreditlar hajmida shubhali va umidsiz kreditlarning salmog'ini oshishi hisobiga standart kreditlarning salmog'ini pasayganligini ko'rsatadi. Bu esa, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdorining ko'payishiga olib keladi va shuning asosida, sof foydaning miqdorini kamayishiga sabab bo'ladi. Chunki, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari summasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi (xarajatlar tijorat banklarining balansida o'sib boruvchi yakun tarzida hisobga olinadi).

Muddati o'tgan kreditlarning risk darajasini oshishi natijasida tijorat banklarining kapital bazasi va ularning likvidligiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirga barham berish uchun Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining muddati o'tgan kreditlariga nisbatan qo'yiladigan talablar aniqlashtirilishi va kuchaytirilishi lozim.

### **Xulosa va takliflar.**

Banklar tomonidan Markaziy bank va boshqa nazorat qiluvchi organlarga kredit portfeli holati, NPL va kredit sifati ko'rsatkichlari to'g'risida aniq va shaffof hisobot taqdim etishi kerak, bu esa tartibga soluvchi organlarga tizimli risklarni samarali nazorat qilish va hal qilish imkonini beradi.

Banklar aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish bo'yicha yo'riqnomaga rioya qilishlari kerak.

Kredit oluvchilarni kreditga layoqatliligini baholashda sun'iy intellektga asoslangan dasturlardan keng foydalanish:

Sun'iy Intellekt yordamidagi kredit modellari (Artificial Intelligence-Assisted Credit Models) — bu qarz oluvchilarning kreditga qobilligini baholashning zamonaviy tizimlari bo'lib, ular sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi va kredit risklarini prognozlaydi.

Sun'iy Intellekt yordamchisidagi kredit modellarining afzalliklari:

- Kreditga qobillikni aniqroq baholash;
- Alternativ ma'lumotlarni qayta ishlash;
- Kredit riski darajasini pasaytirish;
- Qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish;
- Shaxsiylashtirilgan kredit shartlari.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan birga, bank sohasida ham sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilini kredit jarayonlariga keng joriy qilishni banklarning kredit portfelini sog'lashtirib, yangi uslubiy segmentlarga kredit olish imkoniyatini ochadi va kreditlash jarayonini tezlashtiradi.

#### **Adabiyotlar/Амепамыпа/Reference:**

*Kalandarov A.B. (2021) Banklardagi muammoli kreditlarni nazorat qilishda NPL ko'rsatkichining ahamiyati // Innovatsion texnologiyalar. №2 (42).*

*Mamadiyarov Z.T., Tillaev X.S. (2015) Tijorat banklarida muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablari va ularni kamaytirish yo'llari. / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust.*

*Кузнецов С.В. (2008) "Ссудная задолженность кредитных организаций: проблемы и инструменты ее урегулирования / Автореф. дисс. канд. экон. наук. М.*